

**BIBIXONIM JOME MASJIDI**

*Siddiqov Husan*

*Nizomiy nomidagi TDPU tarix fakulteti*

*2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Temuriylar davri me'morchiligining noyob durdonalaridan biri bo'lgan Bibixonim jome masjidi va uning Temuriylar davri hamda undan keying holatlari va hozirgi kundagi holati haqida qisqacha ma'lumot berilgan

**Kalit so'zlar:** masjid, Temuriylar, Amir Temur, Oqsaroy, Katta malika, Yakka minor, naqshlar.

Amir Temur o'z davrining ma'rifatli hukmdorlaridan edi. Amir Temur davlatining shon-shuhratini nafaqat harbiy kuch-qudrati bilan balki yuksak ma'naviyati va madaniyati bilan butun dunyo xalqlarini hayratga soldi. Amir Temur bunyod etgan me'moriy obidalar hozirgacha butun dunyoning nazarini yurtimizga qaratishga, bu me'morchilikni ko'rishga undamoqda. Bu me'moriy obidalarda butun bir tarix aks etgan. Bu me'morchilik namunalari o'tmishda xalqimizning qanday bunyod bo'lganini, yuksak madaniyat egasi ekanligini ko'rsatadi. Amir Temur tomonidan ko'plab saroylar, masjidlar, madrasalar, sardobolar, maqbaralar bunyod etildi. Bularning har biri yuksak mahorat bilan qurildi. Shulardan bizgacha saqlanib, qolganlaridan Go'ri Amir maqbarasi, Bibixonim jome masjidi, Ruhobod, Oqsaroy, Shohi zinda va boshqalar. Bu inshootlar nomi sulola namoyondalari nomi bilan bog'liq hisoblanadi. Me'moriy obidalar aynan sulola namoyondalari sharafiga bunyod etildi. XIV-XV asrlarda Movoraunnahrda, temuriylar davrida obod poytaxtga ega bo'lgan, kuchli davlat yuzaga keldi. Samarqandda yirik qurilish ishlari avj oldi. Unda Sharq xalqlarining me'morchilik tajribasi va xalq an'analari mujassamlashgan edi. Amir Temur jome' masjidi Markaziy Osiyoda eng yirik inshootlardan biri hisoblanadi.

Amir Temur dargohida yashagan tarixchi G'iyosiddin Ali Yazdiyning yozishicha, 801 yilning ramazoni Sharif oyining to'rtinchi kunida (1399-yil 10-may) masjid uchun poytaxtning eng yaxshi joyini Amir Temur tanladi. Mashhur ustalar va me'morlar bu ulkan imoratning loyihasini tuzdilar va eng saodatli daqiqada uning poydevorini qura boshladilar. Mazkur masjid tarixi haqida Abu Tahirxo'ja „Samariya“ asarida shunday keltiradi: „Amir Temur Ko'ragonning jome' masjidi shahar ichida, (uning) shimol tomonida Hazrati Shoh (Dari Ohanin) darvozasining yaqinidadir. „Jome'ning ravoqi ustida: „Amir Tarag'ay o'g'li buyuk hoqon Amir Temur Ko'ragon 801 yilda ushbu jome'ning solinishiga amr qildi“. Jome' darvozasining naqshida yozilgandirkim: Ushbu jome'ni bitkazishga 806 yilda (melodiy 1404) muvaffaq bo'lindi". O'rta Osiyodagi eng katta masjid bo'lib hisoblanadi. Masjid tarjimasida "Katta malika" degan

ma'noni anglatuvchi tarixda Saroy Mulk xonim nomi bilan tanilgan sarkardaning sevimli xotini Bibi Xonim sharafiga qo'yilgan. Uning qurilishi Amir Temurning Hindistonga istilochilik yurishidan so'ng boshlangan, ammo sarkarda bu jarayonni uzoq vaqt davomida kuzata olmagan, chunki u tez orada Usmonlilar imperiyasiga qarshi yurish boshladi. 1404- yilda, harbiy yurishdan qaytib kelgan Amir Temur masjidning kirish portali rejalashtirilganidek muhtasham emasligidan g'azablanadi, shuning uchun uni buzib, qayta qurishni buyuradi. Amir Temur har bir naqsh va dentalning ishlanishiga, inshootning mukammal bo'lishiga kuchli e'tibor beradi. Shuning uchun ham bu me'moriy inshootlar asrlar davomida o'z mahobatini yo'qotmagan. Masjid dizayni Katta majmua kirish portalidan, asosiy masjid va ikkita kichik masjiddan iborat. Maydoni 5 ming kvadrat metr bo'lgan binoning hovlisida bir vaqtning o'zida 10 ming kishigacha ibodat qilishlari mumkin. Hovli to'rt tomondan mahobatli minoralar bilan o'ralgan. Bino naqshinkor bezaklar, marmar va koshinlar bilan bezatilgan bo'lib, uni qurishda dunyoning turli mamlakatlaridan kelgan usta me'morlar qatnashgan. Bibixonim jome' masjidining umumiy sahni 167x109m, burchaklarida baland minoralar bo'lgan va hozirgi davrda bu minoralar qayta tiklandi. Jome' masjid zilzilalar ta'sirida asta-sekin yemirilib vayron bo'lgan, faqat shimoli-g'arbiy minoraning pastki qismigina saqlanib qolgan, balandligi 18,2 m. Ko'p yillar davomida Samarqandning guzarlaridan biri, shu minora sharafiga qadimdan „Yakka minor“ deb yuritilib kelinmoqda. Bibixonim jome' masjidi poydevori xarsang toshdan, devorlari pishiq g'ishtdan ishlangan (qalinligi 4,4 — 5 m). Tiklashga qadar jome' masjidi, bir-biri bilan bog'lanmagan 6 ta me'moriy bo'laklardan iborat edi: hovlining to'rida mehrobli va baland peshtokli bino, ikki yonida uning kichik nusxasi, poyida masjidning ikkiga bo'lingan peshtoqi va shimoli-g'arbda alohida saqlanib qolgan minora bo'lgan. Ilgari bu bo'laklar uch qator oq marmar ustunli, yengil ravoqli peshayvonlar bilan birlashgan va ular tepasida gumbazchalar (400 ta) bo'lgan. Ustunlar 480 ta (oraligi 3,5m) bo'lib, tagkursili, tanasi o'yma naqsh, tepasi rangli koshinlar bilan ishlangan, muqarnaslar bilan bezalgan.

Har biri tashqi darvozaga ega bo'lgan to'rtta peshayvoni bor. Jome' masjidining hovli sahniga marmartosh taxtachalar yotqizilgan. Hovli o'rtasida marmar toshdan yasalgan ulkan bo'lib, u dastlab asosiy bino ichida turgan. Atrofiga nafis hoshiyalar chizilgan, muqarnaslar, o'simliksimon naqshlar va yozuvlar bilan bezalgan. Lavh, Amir Temurning nabirasi Ulug'bek farmoniga binoan, XV asr o'rtalarida yasalgan. Unga „Sultoni azim, oliy himmatli xoqon, din-diyonat homiysi, Hanafiya mazxabining posboni, aslzoda sulton, ibn sulton, amiri momin Ulug'bek Ko'ragon“ deb bitilgan. Jome' masjidga kiraverishdagi peshtoqning yuqori qismi 1897-yilgi zilzila paytida qulagan (qolgan qismining balandligi 33 m, kengligi 46 m). Peshtoq mahobatli bo'lib, o'rtasida kengligi 18,8 metrli ravoq bor. Yon tomonlaridagi minoralar peshtoqdan baland. Peshtoqning ichki tomonida kichikroq (ikkinchi) ravoq o'rnatilgan. Unda

o'yma marmar hoshiyali darvoza bo'lgan. Uning ustidagi lavhasida masjidning qurilgan yili va Amir Temur shajarasi yozilgan. Qo'sh tavaqali darvoza yetti xil temir qotishmasi „hafti jo'sh“dan yasalgan (keyinchalik yo'qolib ketgan). Peshtoqning yon qanotlarida ikkita aylanma zina bo'lgan. Zinadan yuqoriga-qo'ng'ira ravoqli maydonchaga chiqilib, undan minoraga o'tilgan. Peshtoqning keng yuzasi jilvali koshinlar, rang-barang, qalqon shaklidagi naqshlar bilan bezatilgan. Jome' masjidning asosiy binosi Amir Temur zamonasining me'moriy uslublari haqida tasavvur beradi. Asosiy binoning old tomonida peshtoq, markazida ravoq va burchaklarida ikkita ko'p qirrali minora bor. Peshtoq orqasidagi xona oddiy, ammo salobatli xandasaviy shakllar yig'indisidan iborat. Kubsimon prizma binoning asosiy hajmi bo'lib, tomonlari 14,6 m ga teng. Uning ustida xona devorlari bo'ylab o'tuvchi ravoqlardan iborat sakkiz qirrali prizma bor. Gumbazning doirali asosi sirtiga, muqaddas Qur'on oyatlari bitilib, usti feruza koshinlar bilan pardozlangan gumbaz bilan berkitilgan. Uning kirish tomonlari ham, bosh peshtoq kabi rang-barang koshinlar bilan qoplangan, sopol g'ishtchalar yotiq, sirlangan rangli g'ishtchalar tik terilgan. Asosiy naqsh shakllari tiniq, lojuvard g'ishchalardan terilib, ularning oralig'i zangori g'ishtchalar, oq toshlar bilan to'ldirilgan. Oddiy handasaviy shakllar va pechak kabi chirmashib ketgan yozuvlar, bino bezagining tarkibiy qismini tashkil etadi. Mexrobli binoning baland minoralari sathi to'rt burchakli kichik izora taxtalariga bo'lingan. Handasaviy shakl va o'simliksimon naqshlar pannolarni bezagan. Ular parchinkorlik, koshinkorlik uslubida ishlangan. Peshtoq devorining yuzasi kesma koshin bilan qoplangan. Bu koshinlar tiniq shisha kabi yaltirab turadi. Masjid yonidagi ikki kichik bino mehrobli xonaning asosan kichik hajmdagi takrori bo'lsada, naqshlarining soddaligi va gumbazining qo'ng'iradorligi bilan farqlanadi. Jome' masjidining ichki qismini pardozlashda naqqoshlik bezaklari qatorida zarhal bo'rtma gulqog'oz dan keng foydalanilgan. Masjiddagi ko'p qirrali yulduzlar, uch qavatli xatlar o'yilgan lavhalar jajji muqarnaslar bilan bezatilgan, xoshiyalar oxaktoshdan yo'nilgan. Vayrona holatda bo'lsa ham, me'moriy shakllarining serhashamligi, bezaklarining nafisligi bilan, kishi diqqatini jalb qiladi.

Undagi rang-barang naqshlar, o'sha davr xalq ustalarining nozik didi va yuksak mahoratidan darak beradi. 1868 yilda podsho Rossiyasi qo'shinlari Samarqandni qamal qilganda Bibi-Xonim masjidi m. to'p o'qidan vayron bo'lgan. Vayrona holda bo'lsa ham masjidning me'moriy shakllari serhashamligi, bezaklarining nafisligi bilan kishi diqqatini jalb qilib kelgan. Undagi rangbarang naqshlarda o'sha davr xalq ustalarining nozik didi va yuksak mahoratidan darak beradi. Tarixnavis Ibn Arabshohning shahodat berishicha, Jome masjidi mahobatidan hayratga kelgan zamondoshlari „Obidalarimiz avlodlarga bizning kimligimizdan darak beradi“, deb g'urur bilan jar solishgan ekan. Bibixonim jome' masjidida, keyingi davrda ta'mir-tiklash bobida tub o'zgarishlar amalga oshirildi, juda katta hajmdagi ta'mirlash ishlari olib borildi. Masjidning old

katta ravog'i, masjid binosini o'rab turgan baland devor, ikki kichik gumbaz va minoralari, ichki katta gumbaz va katta ravog ta'mirlandi va undagi-barcha koshin naqshu nigorlar qayta tiklandi, Unda respublikamizning barcha viloyatlaridan mohir ta'mirchi ustalar jalb qilindi. O'zbekiston mustaqillikka erishgandan so'ng O'zbekiston Respublikasi prezidenti Islom Karimov tashabbusi bilan o'tmishimizning boshqa me'moriy yodgorliklari qatori Bibi-Xonim masjidi m. ni tiklashga alohida e'tibor berildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining „Amir Temur tavalludining 660 yilligini nishonlash“ haqidagi qarori (1994-yil 29-dekabr)ga binoan me'moriy majmuada ta'mir ishlari olib borilmoqda. Xulosa Amir Temur o'z davrining ulkan imperiyasini bunyod etish bilan birga ulkan madaniyatni ham bunyod etdi. Bu madaniyat asrlar davomida xalqlarning ongida yuksak bir mo'jizani kashf etdi. Shu mo'jiza xalqlarning ongida buyuk saltanat emas, buyuk madaniyat saqlanib, qolishini ko'rsatdi. Amir Temur vafot etdi. U bunyod qilgan davlat ham quladi. Ammo u bunyod qilgan madaniyat esa mangu yashadi. Hozir ham yashamoqda. Shu madaniyat bilan birga Amir Temur ham mangu yashamoqda. Xulosa qilishimiz mumkinki, mangu yashash uchun mangu madaniyat yaratish kerak ekan.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Zohidov P., Temur davrining me'moriy qahkashoni, -Toshkent.1996
2. O'zME. Birinchi jild. -Toshkent.2000-yil
3. Samarqand davlat muzey-qo'riqxonasi — SAMARQANDNING TARIXIY OBIDALARI VA MUZYeYLARI BO'YICHA EKSKURSIYA MATNLARI, 2010
4. <https://uzbekistan.travel/uz/o/bibixonim-masjidi/>
5. <https://milliycha.uz/bibixonim-jome-masjidi/>
6. <https://qomus.info/oz/encyclopedia/b/bibixonim-jome-masjidi/>